O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT VILOYATI
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-46, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

2026 - yil 9 - iyuldagi 288892 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: “Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududidagi qurilishi tugallanmagan binoni rekonstruksiya qilish”.

Buyurtmachi: TOSHKENT SHAHAR HOKIMIYATI YAGONA BUYURTMACHI XIZMATI INJINIRING KOMPANIYASI DUK

Bosh loyihachi: "ORIGINAL PROJECT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari

Bosh pudratchi: Tanlov savdolari (tender) orqali aniqlanadi.

Qurilish turi: Rekonstruksiya

Murojaat raqami: 133938

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-393-sonli qarori.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 13-apreldagi 168-sonli qarori.

1.3. Loyiha topshirig’i Toshkent shahar hokimining birinchi o’rinbosari tomonidan tasdiqlangan, Respublika ixtisislashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK bosh muhandisi, Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK birlamchi ruxsat beruvchi, loyiha va tanlov hujjatlarini tayyorlash bo’limi boshlig’i, BRBL va THT bo’limi bosh mutaxassisi, bosh loyiha tashkiloti “ORIGINAL PROJECT” MChJ direktori, yordamchi loyihachi “COMPLEX GRAPHICS” MChJ direktori, loyiha bosh muhandisi va bosh arxitektori bilan kelishilgan.

1.4. Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 2025-yil 11-noyabrda ishlab chiqilgan 1726-1726269-246319-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.5. “O’ZGASHKLITI” MChJ Toshkent shahar va viloyat filialining 2025-yilda bajarilgan, hududning muhandislik-geologik sharoitlari haqidagi xulosasi.

1.6. “HET” AJ Toshkent shahar elektr tarmoqlari MChJ tomonidan 2026-yil 30-iyundagi 26269250938-sonli elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shart.

1.7. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJ tomonidan taqdim qilingan 2025-yil 30-dekabrdagi 270/4-5838-sonli texnik shart.

1.8. “VEOLIA ENERGY TASHKENT” MChJ tomonidan taqdim qilingan 2026-yil 5-fevraldagi TS-1-045-sonli issiqlik taminotiga ulanish uchun texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko’ra “Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududidagi qurilishi tugallanmagan binoni rekonstruksiya qilish” obyektining taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.

2.2. “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Raspublika markazi” DMning Toshkent shahar boshqarmasining 2026-yil 4-martdagi 275021-sonli yig’ma ekspert xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining shartlari.

- Me`yoriy shamol tezligi bosimi – 0,38 kPa (38 kgk/m2);
- Me`yoriy qor yuki – 0,50 kPa (50 kgk/m2);
- Qurilish maydonchasining seysmikligi – 8 ball;
- Tuproqning seysmik xususiyatlariga ko’ra toifasi – II toifa;
- Qurilish maydonchasining hisobiy seysmikligi – 8 ball;
- Tuproqning cho’kuvchanligiga ko’ra toifasi – II toifa;
- Tuproq muzlash qatlamining normativ chuqurligi – 0,70 metr.

3.2. Bosh reja.

Loyiha asosida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududidagi qurilishi tugallanmagan binoni rekonstruksiya qilish obyektida skrining va reproduktiv salomatlik markazi binosi, TP, avtoturargoh, hududni obodonlashtirish, ko’kalamzorlashtirish ishlari ko’zda tutilgan.

Hudud balansi:

Umumiy maydon – 29 400,0 m2;

Qurilish maydoni – 6 178,0 m2;

Qoplamalar maydoni – 13 722,0 m2;

Ko’kalamzorlashtirish maydoni – 9 500,0m2;

3.3. Arxitektura-qurilish yechimlari.

Skrining va reproduktiv salomatlik markazi binosi.

Loyihalangan salomatlik markazi binosi 6 qavatli, yerto’lali loyihalangan, bino to’rtburchak shaklida o’qlardagi umumiy o’lchamlari 30,4x16,0 metr, yerto’la balandligi 3,9 metr, 1-2-3-4-5-qavatlar balandligi 3,9 mertdan (balandliklar poldan polgacha olindi), 6-qavat poldan shiftgacha balandlik 4,2 metr, binoning umumiy balandligi yer sathidan 27,0 metrni tashkil qiladi. Qavatlar aro aloqa zina va lift orqali amalga oshiriladi.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Binoning qurilish maydoni – 505,12 m2;

Binoning umumiy maydoni – 3 102,8 m2;

Binoning qurilish hajmi – 15 513,71 m3.

Ichki va tashqi pardozlash ishlarida zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish ko‘zda tutilgan.

3.4. NBShlarning qulay va to’siqsiz harakatlanishi uchun yechimlar.

Obyekt hududida nogironligi bo’lgan shaxslar uchun ogohlantiruvchi va yo’naltiruvchi kontrast rangli yo’laklar va boshqalar ko’zda tutilgan.

Salomatlik markazi binosiga kirish qismida nogironligi bo’lgan shaxslar uchun panduslar ko’zda tutilgan. Yo’lak va zinlardagi eshiklar o’zini o’zi yopadigan moslamalar bilan jihozlangan. Binoga kirish qismida va yo’laklarda kontrast rangli yo’laklar, eshiklar atrofi maxsus kontrast rangli tasmalar bilan ajratilgan. Binoda nogironligi bo’lgan shaxslar uchun maxsus hojatxona maxsus tutqichlari bilan, yuqori qavatga ko’tarilish uchun lift va boshqalar loyihalangan.

3.5. Konstruktiv yechimlari.

Skrining va reproduktiv salomatlik markazi binosi.

Binoning konstruktiv yechimi – monolit temirbeton karkas, diafragma bilan;

Poydevorlar osti asosi – zichlangan tuproq asos, qalinligi 1 600 mm va beton to’shama, qalinligi 100 mm beton sinfi B7,5;

Poydevor – monolit temirbeton yaxlit plita, beton sinfi B20;

Poydevor devori – monolit temirbetondan, beton sinfi B20;

Ustun – monolit temirbeton, beton sinfi B25;

To’sin – monolit temirbeton, beton sinfi B25;

Devor – gazablokdan;

Orayopma va tomyopma – monolit temirbetondan iborat, beton sinfi B25;

Zina – monolit temirbetondan, beton sinfi B15;

Tom – chordoqli nishabli tom, tashqi tashkillashtirilgan drenaj tizimi bilan;

Tom qoplamasi – temir konstruksiyalar asosida profnastil bilan yopilgan.

3.6. Yong’in xavfsizligi.

Yong’inga bardoshliligi – II toifa.

Binoning javobgarlik sinfi – II toifa.

Funktsional yong’in xavf turi – F 3.4.

Konstruktiv yong’in xavf toifasi –S0.

Loyihada qo’riqlash va yong’in xavfida xabar berish tizimi o’rnatilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo’laklari tizimi belgilangan. Tok o’tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining yerga ulanishi va nolga teng bo’lishi belgilangan.

3.7. Energiya samaradorlik yechimlari.

Energiya resurslarini tejash maqsadida loyihada quyidagi yechimlar qo’llanilgan:

-barcha tashqi to’siqlar (devorlar, qoplamalar, derazalar) energiya tejash shartlarini hisobga olgan holda amalga oshirilgan;

-bino energiya tejamkor issiqlik izolyasiyasi materiallar bilan ximoyalangan;

-yoritish tizimida energiya tejamkor LED lampalardan foydalanish ko‘zda tutilgan;

-binoning tom qismida quyosh panellari va quyosh kollektorlari ko’zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Loyihalaniyotgan salomatlik markazi binosi binosining ichki muhandislik tarmoqlari va tashqi muhandislik tarmoqlari, suv va oqova suv tizimi, isitish va shamollatish tizimi, elektr ta’minoti, aloqa tizimlari, videokuzatuv tizimlari, yon’gin signalizatsiya tizimlari, tashqi suv va oqova suv tizimi, tashqi elektr ta’minoti va tashqi issiqlik ta’minoti tarmoqlari, tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan texnik shartlar va loyihalash topshirig‘iga muvofiq, ta’minlash ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Hududiy Arxitektura-shaharsozlik kengashining 2026-yil 1-iyuldagi 304822545-sonli xulosasi;
- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 2026-yil 21-yanvardagi 01-02/14-10123-sonli xulosasi.
- O’zbekiston Respublikasi Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK ning 2026-yil 9-iyuldagi 4-4273-sonli kafolat xati.
- Loyiha rejasi, Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi” IK DM bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan, Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, Bosh loyiha tashkiloti “ORIGINAL PROJECT” MChJ direktori bilan kelishilgan.
- O’zbekiston Respublikasi, Sog’liqni Saqlash Vazirligi SEOvaJSQ Toshkent shahar boshqarmasining 2026-yil 1-iyundagi 13-7-sonli xulosai.
- O’zbekiston Respublikasi, Sog’liqni Saqlash Vazirligi Sanepidqo’m Toshkent shahar boshqarmasining 2026-yil 4-iyundagi 16-19v/71-sonli xulosasi.
- Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2026-yil 21-apreldagi 239407-sonli shartnoma.
- Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha buyurtmachi tomonidan ekspertiza ko’rigiga sharhlar, takliflar va e’tirozlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning lokal sharhlari bo’yicha loyiha-smeta hujjatlariga o’zgartirishlar, tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-266-son qaroriga muvofiq hamda ShNQ 2.07.02-24 asosida ishchi loyihaga tuzatish va qo‘shimchalar kiritildi.

6.4. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan, qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. O’zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qaroriga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritib tasdiqlangan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o’z tomonidan berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar.

6.6. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

6.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-sonli qarori, 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-393-sonli qarorining III-punkti 8-bandi va 2024-yil 24-dekabrdagi PQ-454-sonli qaroriga asosan loyiha-smeta hujjatlarinig chegaraviy qiymati

“Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK xulosasi asosida aniqlanadi.

6.8. Ekspertiza natijalari asosida tavsiya etilgan qiymat shartnoma tuzish va pudratchi tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi bo’yicha o’zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo’la olmaydi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 ga asosan, amaldagi me’yoriy hujjatlar talablari va boshqalarni hisobga olgan holda ishlarning qiymat buyurtmachi tomonidan qabul qilinadi.

6.9. Buyurtmachi o’z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-maydagi “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 321-sonli qarori bandlarida keltirilgan talablar va ko’rsatmalarga muvofiq o’ziga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni to’liq bajarishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **“Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududidagi qurilishi tugallanmagan binoni rekonstruksiya qilish”** obyektining loyiha smeta-hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Xolqo‘ziyev Adxam Raxmatulla O‘g‘li, Mirzayev Nodirbek Xalilovich, Sur’atov Xusan Tulqin O‘g‘li, Tulteyev Kenes Tovasovich, Turginov Maxkam Erkenovich, Abdumutaliyev Elyorjon Anvarjon O‘g‘li, Gimalova Adilya Ravilevna, Xamdamov Umid Aminbayevich, Saidburxanov Saidakbar Saidumar O‘g‘li, Vaxobov Ma’ruf Mislimbekovich

Bosh ekspert **SAIDBURXANOV SAIDAKBAR SAIDUMAR O‘G‘LI**